

ISKANDAROV SHUXRAT CHORIYEVICH

**VANADIY OQIM AKKUMULATORLARI UCHUN QAYTA
ISHLANGAN V_2O_5 ASOSIDAGI ELEKTROLITLAR VA
NANOQATLAMLAR BILAN MODIFIKATSIYALANGAN
ELEKTRODLAR**

01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Iskandarov Shuxrat Choriyevich

Vanadiy oqim akkumulatorlari uchun qayta ishlangan V_2O_5 asosidagi elektrolitlar va nanoqatlamlar bilan modifikatsiyalangan elektrodlar.....	5
---	---

Искандаров Шухрат Чориевич

Электролиты на основе переработанного V_2O_5 и модифицированные с нанослоями электроды для ванадиевых проточных аккумуляторов.....	23
--	----

Iskandarov Shuxrat Choriyevich

Recycled V_2O_5 based electrolytes and nanolayer-modified electrodes for vanadium flow batteries.....	45
--	----

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ List of published works.....	49
---	----

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

ISKANDAROV SHUXRAT CHORIYEVICH

**VANADIY OQIM AKKUMULATORLARI UCHUN QAYTA
ISHLANGAN V_2O_5 ASOSIDAGI ELEKTROLITLAR VA
NANOQATLAMLAR BILAN MODIFIKATSIYALANGAN
ELEKTRODLAR**

01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent—2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5212 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb- sahifasida (www.iplt.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashurov Xatam Baxronovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimov Umarbek Kadirberganovich
texnika fanlari doktori, professor

Maxmanov Urol Qudratovich
fizika–matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil " **26** " **sentabr** soat **14:30** dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ **9** raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel: (99871) 262-31-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " **17** " **sentabr** kuni tarqatildi.
(2025-yil " **17** " **sentabr**dagi № **9** raqamli reyestr bayonnomasi)



X.B. Ashurov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari
doktori, professor

I.D. Yadgarov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f-m.f.d., professor

U.K. Maxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi
f-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy hayotning va jahon iqtisodiyotining jadallik bilan o‘sishi, elektr energiyaga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Butun dunyo bo‘ylab ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 80% qayta tiklanmaydigan qazib olinadigan yoqilg‘idan, ya‘ni 28,9% ko‘mirdan, 21,4% tabiiy gazdan va 31,1% neftdan olinadi. Energiya manbalarining qayta tiklanmaydigan (qazilma boyliklar) turini cheklanganligi va salbiy ta‘siri hammaga ma‘lum. Qayta tiklanuvchi energiya resurslari (gidroelektr, shamol, quyosh, geotermal, issiqlik va to‘lqin energiya) toza energiya manbalari hisoblanadi. Ammo, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan elektr energiya doimiy emasligi (tabiat hodisalariga bog‘liqligi) katta hajmli energiya saqlash texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojni ortishiga olib kelmoqda.

Energiya saqlash texnologiyalari asosan ikki turga: mexanik va elektrokimyoviy energiya saqlash usullarga bo‘linadi. Mexanik usullar katta geografik sharoitlarni talab qiladi. Kimyoviy energiya saqlash usullarining ko‘p turlari mavjud bo‘lishiga qaramasdan katta hajmli energiya saqlash uchun to‘liq vanadiy oksidlanish-qaytarilish oqim batareyalari (ing. vanadium redox flow battery VRFB) juda qulay. Mazkur akkumulatorlarning zaryad va razryad tezligi, ekologik xavfsizligi, qulay moslashuvchanligi va uzoq muddat foydalanish imkoniyati sababli istiqbolli texnologiya hisoblanadi. Ammo, VOA elektrolitlarining energiya zichligini oshirish ustida ko‘plab ishlar qilinishiga qaramasdan, elektrolitlarning energiya zichligi va yuqori narxi tufayli VOAlar keng miqyosidan foydalanishni sezilarli darajada cheklamoqda.

Odatda hamma ishlab chiqaruvchilar VOA larida o‘ta toza, 99,99 % li V_2O_5 dan tayyorlangan standart elektrolitlar ishlatiladi. Buning natijasida tannarx bilan bog‘liq muammo yuzaga keladi. Ushbu muammolarni hisobga olgan holda, qayta ishlangan vanadiy besh oksiddan elektrolit sifatida foydalanish mumkin. Shuning uchun ham qayta ishlangan vanadiy besh oksidini (V_2O_5) kelajakda vanadiy elektrolitlari sifatida ishlatish imkoniyati ko‘rib chiqish juda dolzarb. Katalizator sifatida foydalanilgan V_2O_5 oksididan, vanadiy oqim akkumulatorlari uchun elektrolit sifatida foydalanish, atrof-muhitning ekologik xavfini kamaytirish bilan birga VOA elektrolitlarning tannarxini birmuncha pasaytirish imoniyatini beradi.

Sulfat kislota ishlab chiqarishda vanadiy besh oksidi (V_2O_5), SO_2 oksidni SO_3 oksidga aylantirish reaksiyasida katalizator sifatida keng qo‘llaniladi. Butun dunyoda sulfat kislota ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 284,4 million metrik tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib 311 million metrik tonnaga yetishi mumkin. Xususan, O‘zbekistonda ham hozirgi vaqtda yiliga 3 million tonna sulfat kislota ishlab chiqarilmoqda. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun 180 tonna katalizatorga ehtiyoj bor. Sulfat kislota ishlab chiqarishda foydalanib bo‘lingan katalizator chiqindilari inson hayoti va atrof-muhit uchun zaharli bo‘lganligi sababli ekologik muammolarga sabab bo‘lmoqda. Foydalanib bo‘lingan V_2O_5 oksidini utilitatsiya qilish ham iqtisodiy ham ekologik muammodir.

Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi

to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2789-sonli Farmoni va 2019-yil 22-avgustdagi "Xo'jalik va maxsus sohalarida energiya samaradorligini oshirish, energiyani tejash texnologiyalarini joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor choralar to'g'risida"gi PF-4422-sonli Farmonlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiyaning tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy redoks oqim batareyasi (RFB) birinchi marta 1970-yillarda Milliy Aeronavtika va Koinot Boshqarmasi (NASA) xodimi Lourens Taller tomonidan taqdim etilgan. Birinchi redoks oqim batareyasi musbat yarim kamerada $\text{Fe}^{2+}/\text{Fe}^{3+}$ galoid elektrolit eritmasidan va manfiy yarim kamerada $\text{Cr}^{2+}/\text{Cr}^{3+}$ galoid elektrolit eritmasidan foydalangan. Afsuski, tizimning aylanish muddati membrana bo'ylab faol ionlarning tarqalishi tufayli ikkita yarim hujayra elektrolitlarining o'zaro ifloslanishi, shuningdek, zaryadlash paytida salbiy elektrodda ortiqcha H_2 hosil bo'lishi bilan jiddiy cheklangan edi.

Skyllas-Kazakos va uning hamkasblari Yangi Janubiy Uels universiteti (UNSW), Avstraliya 1980-yillarning o'rtalarida birinchi vanadiy oksidlanish qaytarilish batareyani yangi vanadiy oqim akkumulatorlarini (VOA) ishlab chiqdi va reaksiya mexanizmlari, elektrod va membranani o'zgartirish, elektrolitlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish, hujayra nazorati, modellashtirish va simulatsiyalar bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib bordi. 1990-yillarning o'rtalarida guruh Tailanddagi quyosh uyini va elektr golf aravasini quvvatlantirish uchun VOA ning birinchi sinov jarayonlarini ham o'tkazdi.

So'nggi 30 yil davomida har xil turdagi oqim batareyalar ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, VOA eng istiqbolli hisoblanmoqda, chunki anolit va katolit bir xil elementni, ya'ni vanadiyni bir necha oksidlanish darajasiga (V^{5+} dan V^{2+} gacha) ega. Elektrolitlar VOA tizimida buzilmaydigan komponent bo'lsa-da, elektrolitning iqtisodiy qiymati umumiy iqtisodiy ulushining taxminan 30–40 % ni tashkil qiladi. Elektrolitlar ishlab chiqarishda yuqori tozalikdagi vanadiy xomashyosidan foydalanish ham VOA narxini oshirishiga sabab bo'ladi. Ushbu muammolarni hal qilishning iqtisodiy jihatdan samarali usullaridan biri elektrolitlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida pastroq tozalikdagi yoki qayta ishlangan vanadiyni qo'llash orqali hal qilish mumkin.

Bundan tashqari VOAlarini yana bir muhim qismlaridan biri bu elektrodlardir. VOA tizimlari uchun 1987-yilda Avstraliyalik, Yangi Janubiy Uels universiteti (UNSW), olimlari M. Rychcik, M. Skyllas-Kazacos turli elektrod materiallari bo'yicha birinchi bo'lib ilmiy tadqiqotlarini e'lon qildi. Ushbu tadqiqot vaqtida grafit ijobiy yarim hujayraning oksidlovchi muhiti ostida parchalanishga moyilligi

ma'lum bo'lib, bu ijobiy elektrolitda uglerod suspenziyasining shakllanishiga olib keladi.

2015-yilda (Korea Institute of Science and Technology (KIST), Seoul): Janubiy Korealik, K. J. Kim, M.-S. Park, Y.-J. Kim olimlar elektrodlar va reaksiya mexanizmlari bo'yicha ilmiy maqola chop etdilar, unda VOA ilovalari uchun uglerod va metall asosidagi elektrodning rivojlanishi muhokama qilindi. Ular ko'rib chiqilgandan so'ng, VOA uchun metall elektrokatalizatorlarni ishlab chiqarish va ishlashi bo'yicha yangi tadqiqot ishlari nashr etila boshladi. Shu bilan birga, metall oksidi elektrokatalizatorlaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish keskin oshdi. Shunday qilib, bunday elektrodning katalitik ish faoliyatini yaxshilash, ularning o'tkazuvchanligini oshirish va elektrod yuzasiga foydali funksional guruhlarni kiritish maqsadida uglerod asosidagi substratlarga bir nechta metall va metall oksidi elektrokatalizatorlari qo'shildi.

Carnegie Mellon University (Pittsburgh, Pennsylvania, AQSh) olimlar Kozbial va boshqalar. Grafit yuzasining gidrofobligi atmosfera muhitida gidrofobik organik ifloslantiruvchi moddalarning (ya'ni, uglevododlar) adsorbsiyasi bilan bog'liqligini va agar adsorbsiyalangan organik ifloslantiruvchi moddalar olib tashlansa, grafit yuzasi gidrofil bo'lishi mumkinligini xabar qildi.

Bundan tashqari, Université de Montpellier (Fransiya) universiteti olimlari Le, T.X., Bechelany, M., Cretin M. kislorod o'z ichiga olgan funksional guruhlarning grafit namat yuzasiga biriktirilishi uning gidrofilligi va elektrokimyoviy faolligini samarali oshirishi mumkinligini ko'rsatdi. Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, dissertatsiya ishi Elektrod sifatida foydalaniladigan grafit namatni yemirilishi va elektroaktivligini oshirish uchun grafit namat yuzasini atom qavat o'stirish (ALD) usulida TiO_2 nanoqoplama qoplash tadqiqotlariga bag'ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq,

ΦА-Аtex-2018-45 "Mahalliy xomashyo asosida vanadiy oqim akkumulatorini ishlab chiqish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Vanadiy oqim akkumulatori uchun qayta ishlangan vanadiy besh oksididan (V_2O_5) elektrolit sifatida foydalanish imkoniyatini o'rganish hamda elektrod yuzasiga atom qavat o'stirish (ALD) usulida TiO_2 nanoqoplamalar qoplash orqali elektrod samaradorligini oshirish va yemirilishini oldini olish.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqorida keltirib o'tilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Sulfat kislota ishlab chiqarishda katalizator sifatida foydalanilgan vanadiyli texnogen chiqindini qayta ishlab, V_2O_5 ni tozalash usulini ishlab chiqish;

- qayta ishlangan V_2O_5 kukunining bir qancha usullar bilan tarkibini o'rganish;

- qayta ishlangan V_2O_5 kukunidan elektrolit tayyorlash hamda tayyorlangan elektrolit va elektrodni sinovdan o'tkazish uchun bir yacheykali membrana elektron blok (MEB) laboratoriya modelini yaratish;

- tayyorlangan elektrolitni zaryad va razryad jarayonlarini va energiya samaradorligini aniqlash;

-elektrod namat sirtiga ALD usulida turli qalinlikdagi TiO_2 li modifikatsiyalangan qatlam o‘stirish hamda uning xususiyatlarini o‘rganish;

-zaryad va razryad siklidan keyin elektrod sirtidagi yemirilish omillarini aniqlash;

-vanadiy oqim akkumulator MEB uchun mustahkam, ishlov berish qulay materiallardan foydalanib, bipolyar plastinkaning yangi texnologik yechim ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida sulfat kislota ishlab chiqarishda katalizator sifatida ishlatilgan V_2O_5 kukunini qayta ishlab, yana sulfat kislota ishlab chiqarish uchun foydalaniladi. Qayta ishlangan V_2O_5 kukunini yangi soha Vanadiy oqim akkumulatorlari uchun arzon elektrolit sifatida foydalanish va yupqa qatlamli TiO_2 bilan uglerod namat sirtini modifikatsiyalash.

Tadqiqot predmeti – Vanadiy oqim akkumulatorlarda energiya sig‘im vazifasini bajaruvchi elektrolitlarni tarkibidagi vanadiy birikmalarning oksidlanish darajasini o‘zgarishi, shuningdek, elektrod tizimini modifikatsiyalangandan keyingi xususiyatlaridir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsion ishni bajarishda qayta ishlangan V_2O_5 kukunining tarkibini SEM va Elektron zond mikroanalizator yordamida EDS tahlili hamda uning fazaviy holatini Rentgen nurlari difraksiyasi (XRD), molekular tebranishini esa Raman spektroskopiyasi (RS) va elektrolitlarni oksidlanish darajasini Ultrabinafsha spektroskopiyasi (UV–1280 UV–Vis spectrophotometer) tahlil usullari tanlab olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ilk bor modifikatsiyalangan nanoqoplamali elektrodni sinovdan o‘tkazish maqsadida bir yacheykali membrana elektron blok (MEB) laboratoriya modeli ishlab chiqildi;
- ilk bor ALD usulida uglerod namat yuzasiga nanoqoplamali TiO_2 qoplash orqali 50 nm qalinlikda o‘stirilgan TiO_2 li elektrodning zaryadlanish vaqti 1,5-martagacha kamayishi va optimal qalinlik 50 nm ekanligi aniqlandi;
- ilk bor TiO_2 bilan modifikatsiyalangan katod elektrodlarida yemirilish 2,3 martagacha kamayishi aniqlandi. Bundan tashqari katod elektrodlaridagi yemirilish TiO_2 nanoqoplama qalinligiga bog‘liq etmasligi aniqlandi;
- ilk bor vanadiy oqim akkumulatorlar MEB uchun yangi turdagi bipolyar plastinkalar texnologiyasi yechimi taklif qilindi. (№ FAP 02314. 31.07.2023)

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sulfat kislota ishlab chiqarishda katalizator sifatida foydalanilgan vanadiyli texnogen chiqindini qayta ishlab, V_2O_5 ni tozalash usulini ishlab chiqildi. Qayta ishlangan V_2O_5 kukunidan tayyorlangan elektrolitni hamda modifikatsiyalangan nanoqoplamali elektrodni sinovdan o‘tkazish maqsadida bir yacheykali membrana elektron blok (MEB) laboratoriya modeli ishlab chiqildi.

ALD usulida, uglerod namat yuzasiga nano qoplamali TiO_2 qoplash orqali, 50 nm qalinlikda, gidrofillik va katalitik xususiyatini to‘liq namoyon qilib, 50 nm

optimal qalinlik ekanligi aniqlandi. Ko'p qatlamli vanadiy oqim akkumulatorlar MEB uchun yangi turdagi bipolyar plastinkalar texnologiyasi yechimi taklif qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning ishonchliligini zamonaviy standartlashtirilgan usullar va qo'shimcha tadqiqot usullarini qo'llash, yuqori aniqlikdagi asboblardan foydalanish, shuningdek, aniq statistik natijalar olish uchun eksperimental ma'lumotlarni kerakli darajada ta'minlanadi. Zamonaviy eksperimental texnologiyani qo'llash va olingan natijalar va boshqa mualliflarning ma'lumotlari bilan mos kelishiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* sulfat kislota ishlab chiqarishda ishlatilgan V_2O_5 ni tozalash usulini yaratish va uni tozaligini tekshirib, VOA uchun elektrolit tayyorlash hamda elektrod materiali sifatida foydalaniladigan grafit namat sirtini TiO_2 bilan nanoqoplama qoplab, elektrodning yemirilish jarayonini oldini olish. Qayta ishlangan V_2O_5 dan elektrolit tayyorlab, modifikatsiyalangan elektrodni xususiyatlarini o'rganish uchun bir yacheykali MEB yig'ish, bu esa vanadiy elektrolitlarini oksidlanish jarayoni va modifikatsiyalangan elektrodni tabiatini chuqurroq tushunchaga ega bo'lish uchun keng qamrovli nazariy tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati*, qayta ishlangan V_2O_5 dan tayyorlangan elektrolit hamda modifikatsiyalangan elektrodlar VOA uchun arzon elektrolit va zaryad/razryad jarayonida yemirilishga chidamli elektrod sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu dissertatsiya doirasida olingan natijalar qayta tiklanuvchi energiya manbaidan olingan energiyani saqlash sohasida ya'ni VOA uchun qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi

Vanadiy oqim akkumulatorlari uchun qayta ishlangan V_2O_5 asosidagi elektrolitlar va nanoqatlamlar bilan modifikatsiyalangan elektrodlar bo'yicha tadqiqot natijalariga ko'ra:

Ko'p yacheykali MEB uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan foydali modelga patent olindi (№ FAP 02314, №-31.07.2023-y.). Natijada, ko'p yacheykali MEB yig'ishda yuqa (2–3 mm) grafit plitalardan foydalaniladi. Grafit materiali mo'rtligi uchun ko'p yacheykali grafit plitalarni yig'ish jarayonida grafit plitani sinish ehtimoli yuqori. Shu sababli ushbu patentda grafit plita materialini o'rniga arzon, ishlov berish qulay mustahkam materiallardan foydalanish taklif etilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan energiyani saqlash va iste'molga yo'qotishsiz yetkazib berishda, katta hajmli energiya saqlash texnologiyalarning ulushi katta. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishda yaqin kelajakda eng istiqboli texnologiyalardan biri hisoblanayotgan vanadiy oqim akkumulatorlarini imkoniyati mavzusidagi maqolamizga: “*Solving the Problem of Energy Storage for Solar Photovoltaic Plants (Review)*” quydagi xorijiy tadqiqotchilar (Physical Review Letters. 2020. V.124. №19. p.196402, IF=9.185; Applied Solar Energy. 2024. V.60. p.357–369, IF=1.6; Membranes. 2021. V.11. №11. p.867, IF=4.2; Applied Solar Energy. 2022. V.58. p.444–457, IF=1.6)

har xil turdagi katta hajmli energiya saqlash akkumulatorlarining yutuq va kamchiliklarini taqqoslashda keng foydalangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 14 ta xalqaro ilmiy-texnik va ilmiy amaliy anjumanlarda aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 1 ta O'zbekiston Respublikasi patent va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari 5 ta maqola, shulardan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, 113 ta adabiyotlar ro'yxati, 40 ta rasm va 5 ta jadvaldan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining ahamiyati va dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari haqida ma'lumot berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniqlangan. Olingan natijalarning ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati ta'riflangan. Ushbu natijalarning ishonchliligi, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi, ishning aprobatiya natijalari hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobida zamonaviy adabiyotlar asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlanishida katta hajmli energiya saqlash texnologiyalarining ahamiyati va turlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yaqin kelajakda eng istiqbolli energiya saqlash texnologiyalari va ularning yutuq va kamchiliklari va sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning holati tahlil qilingan, shuningdek, ushbu sohadagi mavjud muammolar bayon etilgan.

Ikkinchi bob "Vanadiy oqim akkumulator elektrolitlari uchun ikkilamchi V_2O_5 kukunini tozalash usuli va namunalarni analitik tahlili" dissertatsiyada ishlatilgan asosiy boshlang'ich materiallarning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi: texnogen chiqindilar — Navoiy kon-metallurgiya kombinatida sulfat kislota ishlab chiqarishda katalizator sifatida ishlatilgan V_2O_5 kukunini qayta ishlab, qayta ishlangan V_2O_5 kukunining bir qancha usullar bilan tarkibini o'rganish tavsiflangan.

Qayta ishlangan V_2O_5 kukunida elektrolit tayyorlash usullari bilan tanishib afzal usul tanlab olinib vanadiy oqim akkumulatorlari uchun elektrolit tayyorlash haqida ma'lumotlar berilgan. Tayyorlangan elektrolitimizni tajriba sinov jarayonlaridan o'tkazish uchun bir yacheykali membran elektron blok yig'ilib elektrolit va elektrodlarni sinov qurilmalari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tilgan

Uchinchi bob "Qayta ishlangan vanadiy besh (V_2O_5) oksidini vanadiy oquvchan akkumulator elektrolitlari uchun foydalanish imkoniyati" qayta ishlangan vanadiy oksid tarkibidagi qo'shimcha elementlar mavjudligini tekshirish


uchun biz ikki xil usuldan foydalandik. Birinchi usul JSM–IT200 markali Scanning Electron Microscopy (SEM) yordamida tekshirildi. 1-a)-rasmda 500 μm o'lchamdagi (V_2O_5) kukunning umumiy ko'rinishi tasvirlangan. Ushbu tasvirdagi b) rasmda vanadiy elementi butun sir bo'yicha taqsimlangan va c) rasmdan esa kislorod elementi butun yuza bo'yicha taqsimlangan. Bundan ko'rinadiki namunamizning asosiy miqdorini butun hajm bo'ylab kislorod va vanadiy tarqalgani ko'rinib turibdi.



1-rasm. (V_2O_5) kukuni SEM da tasviri. a) vanadiy oksidini umumiy tasviri, b) vanadiy, c) kislorod d) kremniy e) aluminiy elementlarining ko'rinishi

d) rasmdagi namuna yuzasining ma'lum joylarida kichkina nuqtachalar shaklida kremniy elementini namoyon bo'lgan, xuddi shunday tasvirni e) rasmda aluminiy elementini kuzatishimiz mumkin. Ushbu rasmlarni hammasi 100 μm o'lchamdagi tasviri.

Ushbu (V_2O_5) kukuni tarkibini aniqlash uchun ikkinchi usul JXA–8800R Elektron zond mikroanalizator (Jeol, Yaponiya) yordamida amalga oshirildi.



2-rasm. JXA-8800R Elektron zond mikroanalizator yordamida olingan tasvir va elementlar grafigi keltirilgan


2-rasmda a) tasvirda vanadiy oksidi kukunining 200 μm o'lchamdagi tasviri keltirilgan, namunaning qora rangda bo'lishining sababi, qurilma (JXA-8800R) namuna yuzasida kislorod elementi evaziga ekranda tasvirni ko'rish imkoniyati yo'qoladi. Qurilmadan tushayotgan nurni to'liq yutilishi uchun yuqorida aytib o'tilgan vakuum-yoy usuli yordamida namuna yuzasiga 3–4 nm qalinlikda uglerodli qatlam o'stirildi. b) namunamizning tarkibidagi elementlarning piklari keltirilgan. Ushbu grafigimizdan ko'rinib turibdiki namunamiz tarkibida, vanadiy elementining piki intinsivligi yuqori buning sababi namunaning tarkibiy qismini asosan vanadiy elementidan iboratligidadir. Ushbu rasmda ko'rinib turibdiki, fonoviy rejimda Mis (Cu), Kremniy (Si), Kaliy (K) elementlarini ham kuzatishimiz mumkin. Mis (Cu) elementni bo'lishiga sabab biz taglik sifatida latundan foydalandik, ushbu taglik hisobiga 0.98% Mis (Cu) piki nomoyon bo'lgan.

Skannerlovchi elektron mikroskop yordamida aniqlangan V_2O_5 kukuni tarkibida namoyon bo'lgan Aluminiy (Al) elementi kuzatilishiga sabab etalon taglik fondan ayirib tashlanmagani hisobiga ekanligi aniqlandi.

Ushbu keltirilgan ikki usulda ham V_2O_5 kukuni tarkibidagi elementlar bir-birini takrorlaydi. Qayta ishlangan V_2O_5 kukunining tozalik darajasi yuqori (SEM) 99.61% (JXA-8800R Jeol) 98.37% V_2O_5 kukuni mavjudligi va konsentratsiyasi bir-birini takrorlashi aniqlandi.

Qayta ishlangan V_2O_5 kukunining fazaviy analizini XRD rentgen difraktometr yordamida aniqlandi. 3- rasmda (V_2O_5) kukunining termik ishlov berilmagan dastlabki namuna grafigi hamda $T=393$ K va $T=573$ K temperaturada termik ishlov berilgandagi difraktogrammasi solishtirilgan.

Rasmdan ko'rinadiki, qora chiziq bilan ko'rsatilgan cho'qqilar dastlabki ishlov berilmagan V_2O_5 kukunining difraktogrammasi, bunda bir nechta yondosh elementlarining kukun tarkibida mavjudligi evaziga qo'shimcha fon hosil bo'lgan (asosan suv molekullari hisobiga). Bu dastlabki namuna difraktogrammasidagi $2\theta=26,41$; $2\theta=44,13$; $2\theta=50,58$; burchaklarida chiqqan cho'qqilar intensivligi sezilarli darajada yuqori emas. Buning sababi kukunning namligi va shu bilan bir qatorda amorf xususiyatga ega ekanligi hisobiga yondosh fonli cho'qqilar hosil bo'lishi kuzatildi.



3- rasm. Qayta ishlangan V_2O_5 oksid kukuni difraktogrammasi

Dastlabki V_2O_5 namunadagi namlikni yo'qotish maqsadida kukunga termik ishlov berildi. Ushbu namunamizga SNOL – markali qizdiruvchi pechka yordamida $T=393$ K temperaturada $t=5$ soat davomida termik ishlov berildi. Termik ishlov berilgan kukunni difraktogrammasi rasmdagi qizil chiziq bilan ko'rsatilgan. Namunaga termik ishlov berilgandan so'ng V_2O_5 kukunida bir qancha intensivligi yuqori bo'lgan cho'qqilar hosil bo'lishini kuzatildi. Bunga sabab yuqorida aytib o'tganimizdek kukun tarkibidagi namlikni kamayishi va yengil elementlarning kukun tarkibidan uchib ketishi oqibatida yuzaga keladi. Bunda cho'qqilar $2\theta=14,96$; $2\theta=20,19$; $2\theta=26,02$; $2\theta=30,93$; $2\theta=44,21$; $2\theta=47,31$; $2\theta=50,65$; burchaklarda namoyon bo'ladi. Cho'qqilar intensivligi amorflikning kamayishi hisobiga oshishi kuzatiladi.


SNOL – markali qizdiruvchi pechka yordamida yanada yuqoriroq $T=573$ K temperatura bilan $t=5$ soat davomida termik ishlov berildi. Buning natijasida $T=573$

K temperaturada termik ishlov berilgan namunamizda esa mutlaqo kristallikka ega bo'lgan, kristallik fazaviy guruhi Pmmn bo'lgan ortorombik xususiyatli kristall panjaraga ega V_2O_5 kukuniga olindi, bir nechta yangi cho'qqilar yuzaga kelishi va kukun tarkibida namlik yo'qolishi kuzatildi. Bu namunamizda $2\theta=15,32$; $2\theta=20,19$; $2\theta=21,66$; $2\theta=26,07$; $2\theta=30,98$; $2\theta=32,37$; $2\theta=33,26$; $2\theta=34,21$; $2\theta=41,17$; $2\theta=54,51$; $2\theta=47,26$; $2\theta=48,65$; $2\theta=51,17$; $2\theta=51,99$; $2\theta=55,56$; $2\theta=58,89$; $2\theta=61,02$; $2\theta=62,07$; $2\theta=64,54$; $2\theta=66,06$; burchaklarda V_2O_5 kukuni cho'qqilari kuzatildi. 573 K temperaturada ishlov berilgan kukunning kristall panjara tugunlarida joylashuvi 5-rasmda Kristall panjara markazida vanadiy va atrofida kislorodni tutib turgan kristallashuv ko'rsatilgan, kiristallashish ortorombik ideal xususiyatni nomoyon qilishi kuzatildi.

Ushbu natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, dastlabki ishlov berilmagan namunaga nisbatan, 393 K, 593K temperaturalarda termik ishlov berilgan namunalarining cho'qqilar sonining geometrik progressiya asosida ko'payib borishi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, 593 K temperaturada termik ishlov berilgan namuna intensivligi, dastlabki ishlov berilmagan namuna intensivlikdan 5 baravarga va 393 K temperaturada termik ishlov berilgan namunadan esa 2,8 baravarga oshishi kuzatildi.

Raman spektrlari xona haroratida InVia Raman spektrometri yordamida V_2O_5 kukunining molekular bog'lanishi o'rganildi. Raman spektroskopik o'lchovlar ichki va tashqi rejimlarga mos keladigan yuqori va past to'lqin soni sohalarda joylashgan ($3A_g+2B_{1g}+B_{2g}+B_{3g}$) ruxsat etilgan rejimlarning shakli va chastotasi yordamida muhokama qilindi. Ichki rejimlar $500-1000\text{ cm}^{-1}$ to'lqin uzunligi oralig'ida V-O elastik (cho'zilish) tebranishlaridan iborat va tashqi rejimlar $100-500\text{ cm}^{-1}$ to'lqin uzunliklari oralig'idagi V-O-V egilish tebranishlarini o'z ichiga oladi.



4-rasm.
 V_2O_5 kukuni
Raman
spektri

V_2O_5 kristall kukuni ($3A_g+2B_{1g}+B_{2g}+B_{3g}$) Raman aktiv rejimlarni namoyish etdi va bu mos ravishda 4-rasm piklar 145, 195, 284, 303, 406, 481, 527, 700 va 995 cm^{-1} diapazonlardagi to'lqin uzunligida aniqlandi. Ushbu piklar V_2O_5 ning mikrokristall kukunlari uchun olingan natijalarning intinsivligi va to'lqin soni bo'yicha mosligi aniqlandi. 4-rasmda V_2O_5 kristall kukunining Raman spektri keltirilgan. 995 cm^{-1} diapazondagi pik V=O bog'ning elastikligini xarakterlaydi. 700 cm^{-1} dagi ikkinchi pik burchak kislorodidan kelib chiqadigan ikki karrali


koordinatsiyalangan kislorod (V_2-O_B) elastik rejimiga to'g'ri keladi. 527 cm^{-1} dagi uchinchi pik uch karrali koordinatsiyalangan (V_3-O_C) bilan bog'liq. 406 cm^{-1} dagi pik mos ravishda uch koordinatali kislorod (V_3-O_C) va $V-O_B-V$ bog'lanishlarining egilish tebranishlarini bildiradi. 284 cm^{-1} dagi pik O_C-V-O_B bog'ining egilish tebranishi bilan bog'liq. 145 cm^{-1} va 193 cm^{-1} da yana ikkita Raman piklari ko'rsatilgan, ular panjara tebranishlariga mos keladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlanga vanadiy oksid kukuni, 406 cm^{-1} (V_3-O_C) va $V-O_B-V$ ko'rinishida kislorod bilan egilish tebranishini yuzaga keltiradi. 995 cm^{-1} to'lqin uzunligida elastiklik (cho'zilish) xususiyatini yuzaga keltiradi va vanadiy qirralarida kislorod bilan birikadi.

Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlangan V_2O_5 kukuni tarkibi elektrolit sifatida ishlatishda salbiy ta'sir qiluvchi elementlar yaniy Cu va Na kuzatilmadi. Xulosa qilib aytganda, qayta ishlangan V_2O_5 kukunimizning tozalik darajasi yuqori va tarkibidagi qo'shimcha elementlar elektrolit sifatida ishlatilishiga sezilarli ta'sir qilmaydi. Shunday qilib, qayta ishlangan V_2O_5 kukunida VOA uchun elektrolit tayyorlash mumkin degan xulosaga kelamiz.

Ikkilamchi V_2O_5 dan tayyorlangan elektrolitlarni sinov tahlili. Zaryadlash jarayonida elektrolitni V(III)/V(II) aniolit va V(V)/V(IV) katiolitlardagi zaryad holatiga qarab (Open-circuit potential) OCP–0.8 V zaryadsiz holatda va OCP–1.42 V zaryadlangan holatda namunalar oldik.


Vanadiy ionlarning ajoyib xususiyatlaridan biri, ularning oksidlanish darajasi o'zgarishi bilan o'zlarida turli xil ranglarni namoyon qiladi va V(II) (binafsha), V(III) (yashil), V(IV) (ko'k) va V(V) (sariq) ko'rinishda bo'ladi (5- rasm).




5-rasm. Turli oksidlanish darajasiga ega vanadiy elektrolitlarning ko'rinishi

Zaryad va razryadlangan elektrolitdan 0.013 M eritma tayyorlab oldik. Tayyorlangan eritmani UV-1280 spektrofotometr yordamida yutilish spektrlari olindi. Quyidagi rasmlarda UV-1280 spektrofotometrdan foydalanib olingan natijalar keltirilgan.


6-a-rasmda keltirilgan UV spektridan ko'rinadiki V(II), V(III), V(IV) va V(V) ionlarining asosiy yutilish cho'qqilari mos ravishda 855 nm, 610 nm, 765 nm va 390 nm to'lqin uzunligida kuzatilgan. Bu esa adabiyotlarda ko'rsatilgan natijalar bilan mos keladi. Keyingi 6-b-rasmda esa ajralishlar namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin, bu spektrdagi 400 va 600 nm va to'lqin uzunligida manfiy elektrodda mos ravishda V(III) ionlari hosil bo'lganidan dalolat beradi.



a)




b)



c)


Keyingi 6 - c-rasmda, kationdagi jarayon spektri keltirilgan, rasmdan ko'rinadiki, 390 nm da V(V) ionlari va 765 nm da V(IV) ionlarining yutilish spektrini ko'rish mumkin. Shunday qilib, qayta ishlangan V_2O_5 kukunidan tayyorlangan elektrolit, zaryad va razryad holatida vanadiy ionlarining o'zgarish jarayoni to'laligicha bajarilganini isbotlaydi.



7-rasm.

Zaryadlash va razryadlash sikl sinovlari doimiy tok zichligi $\pm 20-90 \text{ mA/sm}^2$ da sig'imga bog'liqlik grafigi.

Ushbu 7-rasmda bir yacheykali vanadiy oqim akkumulatorlari laboratoriya modelida har xil, ya'ni $\pm 20-90 \text{ mA/sm}^2$ tok zichliklarida tajribalar olib borildi. Grafikdan ko'rinadiki har 10 ta siklda doimiy tok zichligini oshirish mobaynida zaryad sig'imi kamayib borishi kuzatiladi. ($20 - 30 \text{ mA/sm}^2$ doimiy tok zichligida, elektrolit sig'im ($29 - 28 \text{ mA} \cdot \text{s ml}^{-1}$) deyarli o'zgarish sezilmadi. Lekin 20 mA/sm^2 doimiy tok zichligida bilan zaryad razryad qilganimizda ko'proq vaqt talab etilishini hisobiga, 30 mA/sm^2 doimiy tok zichligini maqbul rejim sifatida tanlab olindi.




8-rasm. 30 mA/sm² doimiy tok zichligi bilan 300-sikl davomida zaryad va razryadlash grafigi

8-rasmdan ko‘rinadiki tayyorlagan elektrolitimizni optimal rejim 30 mA/sm² doimiy tok zichligi bilan 300-sikl davomida zaryad va razryadlaganimizda energiya sig‘ım 28 mA·s ml⁻¹, kolumbik effektivlig 90 % barqaror ishlash rejimini namoyish etdi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida “Vanadiy oqim akkumulator elektrod tizimini modifikatsiyalash” yuqori bosim ostida grafit plitadan tayyorlangan, elektrod materiallari uchun grafit bipolyar plita tayyorlandi.

Buning uchun biz, yuqori bosim ostida tayyorlangan nanozarrali grafit plitasidan, ikkita bir xil grafit bipolyar plita yasadik. (Zibo Ouzheng Carbon Co.,Ltd. Xitoy) Ushbu grafit plitamizning fizik xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Grafrit plitalarning texnik xususiyatlari		
Uglerod tarkibi	S	99,9%
Umumiy zichligi	g/cm ³	1,96
Elektr qarshiligi	μΩ.m	9
Bukulish kuchi	MPA	54
Siqilish kuchi	MPA	99




9-rasm. Grafit bipolyar plitani serpantin usulida sxematik chizmasi


Grafitli bipolyar plitaning har ikkalasining qalinligi 10 mm, eni va bo‘yi 70 mm o‘lchamda (70x70x10 mm) tayyorlab oldik. Elektrolit oqishini yaxshilash maqsadida, MEB ning ishchi yuzasini bo‘yi 42 mm, eni 40 mm o‘lchamda, serpantin usulida kanofka chiziqlari chuqurligi 2 mm, kengligi 2 mm devorlar orasi ham 2 mm o‘lchamda oqim maydoni hosil qilindi. 9-rasmda sxematik chizmasi keltirilgan.

MEB ni yig‘ish uchun tayyorlangan grafit bipolyar plastinkani o‘rtasida ajratuvchi sifatida Nafion – 117 membranadan foydalandik. Grafit bipolyar plitaning siquvchi rezina sifatida 2 mm qalinlikda silikon rezina va rezina orasini bo‘yi 42 mm va eni 40 mm ishchi yuzasini kesib olib, o‘rniga 3 mm qalinlikdagi xuddi shu o‘lchamli ikkita bir xil elektrod sifatida uglerod namat (Zibo Ouzheng Carbon Co.,Ltd. Xitoy) joylashtirib bir yacheykali MEBni yig‘amiz. Grafit bipolyar plitani sinib ketishini oldini olish va bir xil kuch bilan siqish maqsadida HP panellari yordamida tashqi siquvchi qolip yasab olindi. Bu HP panel grafit plitani sinishdan asrashi bilan birga elektrodlarda oksidlanish qaytarilish reaksiyasi natijasida hosil

bo'lgan elektronlarni olib chiqish uchun grafit plita va HP paneli orasiga, qalinligi 0,5 mmli mis listdan kollektor sifatida foydalanildi. Hosil bo'lgan bir yacheykali MEB ni bir-biriga boltlar orqali mahkamlandi. Quyidagi 10- rasmda esa bir yacheykali MEB kerakli detallari va umumiy yig'ilgan ko'rinishi tasvirlangan.



a)



b)

10-rasm. a) bir yacheykali MEB detallari va b) bir yacheykali MEB umumiy ko'rinishi

Tayyorlangan elektrolitni kislotali bo'lganligi uchun kislotaga chidamli kimyoviy mustahkam 6 mm plastmassa quvurlar va silikon naylardan foydalanildi. Reaksiya ketadigan ishchi yuzaga elektrolitni haydab berish uchun BT103S Speed-Variable Peristaltic Pump markali 2 ta peristaltik nasosdan ishlatildi.

Sinovlardan oldin elektrod ma'lum haroratda ishlov berilgan va membrana 5-soat davomida deionlashgan suvda cho'ktirilgan. Manfiy va musbat tomoniga 20 ml aniolit va 20 ml katiolit vanadiy elektrolitlari saqlash idishlariga solinib tajriba olib borildi.

Ushbu tajriba qurilmasi yig'ilgandan keyin vanadiy elektrolitlarining elektrokimyoviy o'lchash ishlarini Corrtest Instruments ni Potentiostat/Galvonastat Model: CS350M qurilmasi yordamida Galvanostatic zaryad/razryad sinovlari olib borildi. 11- rasmda qurilmaning umumiy ko'rinishi tasvirlangan.



11-rasm. Bir yacheykali laboratoriya modelining quvvatlash jarayonidagi tajribalarning umumiy ko'rinishi

Zaryadlash va razryadlash sinovlari 16 sm² faol maydon uchun bir yacheykali laboratoriya modelida CS350M EIS Potentiostat /Galvanostat (Wuhan LandCo. Ltd., Wuhan, Xitoy) qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Zaryadlash va razryadlash sinovlari oqim tezligi 20 Orpm da, manfiy va musbat rezervuarlarda 20 ml vanadiy elektrolitlarida olib borildi. Zaryadlash va razryadlash sikl sinovlarining maqbul rejimini aniqlash uchun doimiy tok zichligi $\pm 20-90\text{mA/sm}^2$ oralig'ida tajribalar olib borildi. Zaryadlash uchun yuqori chegara kuchlanishi 1,6 V, pastki chegara kuchlanish 0,8 V kuchlanishda amalga oshirildi.


Vanadiy oqim akkumulator elektrod tizimini nanoqoplama qoplash orqali yemirilishini oldini olish. GF (grafit namat) yuqori o'ziga xos sirt maydoni va ajoyib elektr o'tkazuvchanligi, moslashuvchanligi, korroziyaga chidamliligi va

elektrokimyoviy barqarorlik kabi ko‘plab ajoyib xususiyatlarga ega bo‘lgan, uch o‘lchovli (3D) g‘ovakli tuzilishga ega. Shu sababli, u energiya va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun elektrodlar sifatida keng o‘rganilgan, ular orasida vanadiy oksidlanish qaytarilish oqim batareyalari (VRFBs), super kondensatorlar, mikrobial yonilg‘i hujayralari (MFC) bioyoqilg‘i hujayralari (BFC) va boshqalar.

Turli xil sharoitlarda grafit namat sirtini o‘zgartirish uchun bir qancha usullar muvaffaqiyatli qo‘llanilgan, jumladan plazma bilan ishlov berish, kimyoviy tozalash, termal ishlov berish, nitrogenizatsiya bilan ishlov berish, uglerod nanomateriallari asosidagi modifikatsiya, nanostrukturaviy metallar va metall oksidlari bilan ishlov berish mumkin.

